Sirdaryo–nomlari ham ko‘p bo‘lgan daryo. Daryo nomi Sir, ya’ni, “rang” bo‘yoq.“Sariq daryo” loyqa suvli daryo), “Serob” (Sersuv “Sirtdaryo” (tog‘ sirtlaridan, tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma’noni bildiradi [6;43-b.].

Xulosalar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, toponimlarda xalqning o‘tmishi, ma’lum bir hududning kelib chiqishi, hududga mos va xos bo‘lgan an’ana va urf-odatlar, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar hamda xalqning etnomadaniy o‘ziga xosliklari o‘z aksini topadi.

Toponimlarni o‘rganish nafaqat tilda yangi so‘zlarni o‘rganishga emas, balki muayyan biror til leksikografiyasining boyib borishiga ham xizmat qiladi.

Jahon tilshunos olimlaridan V.V.Kolesov konseptga ta’rifni berishda unda badiiylik xususiyatlari mavjudligi, adabiyotga xos bo‘lgan terminlarning aks etishini hisobga oladi: “konsept – o‘zining mazmundor shaklida – obraz, tushuncha va ramzda namoyon bo‘lgan tushuncha mohiyati” [2;53-b.].

Demak, onomastik birliklar, xususan, tadqiq etganimiz toponimlar, oykonimlar, oronim va gidronimlar, o‘z navbatida, badiiylilikni, obrazlilikni va shoirning o‘z she’rida o‘quvchiga qanday fikrni ifoda etishiga ko‘maklashuvchi muhim birliklar ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Yuqorida ko‘rib o‘tdikki, ayni bir nom turli xil konseptni ifoda etmoqda: sog‘inch, ayriliq, shodlik, abadiylik, fidokoronalik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”, 2006, 92-bet.

(2). Anorqulova O. Konsept tushunchasi va uning o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqiga doir mulohazalar. 2022.

(3). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [matn]. Tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshqalar]. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2022, 624-bet.

(4). T.Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. T., “Yangi asr avlodi”, 2007, 88-bet.

(5). Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006, 103-bet.

(6). Ravshanov D.T. Shafoat Rahmatullo. Termiziy she’riyati onomastikasi. Filologiya fan. nom. diss., Termiz, 2023.

(7). Urganch davlat universiteti. “O‘zbek filologiyasi” kafedrasi. Onomastika fanidan o‘quv-uslubiy majmua, Urganch, 2022, 92-bet.

(8). Sirojiddin Sayyid. Uyingdagi beshiklar. Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti, 1996, 26-bet.

(9). Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. Toshkent, “Sharq”, 2002, 167-bet.

(10). Usmon A’zim. Yurak. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 325-bet.

(11). Usmon A’zim. Saylanma. Toshkent, “Sharq”, 1995, 282-bet.

(12). https://ziyonet.uz/ru

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna (Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti; https://orcid.org/0000-0001-6038-1181; shahnoza.rustamova.1983@gmail.com)

TARJIMADA FUNKSIONAL USLUB VA STILISTIK TRANSFORMATSIYA MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarjima jarayonida funksional uslubni saqlash va stilistik transformatsiya muammolari zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, tarjimaning ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatik moslashuv va madaniy adaptatsiya kabi asosiy kategoriyalari funksional uslub bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Ingliz–o‘zbek hamda rus-o‘zbek tarjimalari materiallari asosida leksik-semantik, sintaktik va pragmatik transformatsiyalarning uslubiy natijalari aniqlanadi. Xalqaro tarjimashunoslik nazariyalari o‘zbek olimlarining ilmiy qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, stilistik adekvatlik tushunchasining mazmuni kengaytiriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima nazariyasi, funksional uslub, stilistik transformatsiya, ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatik moslashuv, diskurs, milliy-estetik tafakkur.*

Рустамова Шахноза Абдурахимовна (Ташкентский государственный транспортный университет, доцент; https://orcid.org/0000-0001-6038-1181; shahnoza.rustamova.1983@gmail.com)

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СТИЛЯ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье проблемы сохранения функционального стиля и стилистических трансформаций в процессе перевода анализируются на основе современных лингвистических подходов. Основные категории теории перевода–таки, как эквивалентность, адекватность, прагматическая адаптация и культурная адаптация–рассматриваются в тесной взаимосвязи с функциональным стилем. На материале англо-узбекских и русско-узбекских переводов выявляются стилистические результаты лексико-семантических, синтаксических и прагматических трансформаций. Международные теории переводоведения сопоставляются с научными взглядами узбекских ученых, что позволяет расширить содержание понятия стилистической адекватности.*

Ключевые слова: *теория перевода, функциональный стиль, стилистическая трансформация, эквивалентность, адекватность, прагматическая адаптация, дискурс, национально-эстетическое мышление.*

Rustamova Shakhnoza Abdurakhimovna (Tashkent State Transport University Associate professor; https://orcid.org/0000-0001-6038-1181; shahnoza.rustamova.1983@gmail.com)

PROBLEMS OF FUNCTIONAL STYLE PRESERVATION AND STYLISTIC TRANSFORMATION IN TRANSLATION

Annotation. *This article analyses the issues of preserving functional style and stylistic transformation in the translation process based on modern linguistic approaches. The fundamental categories of translation theory–such as equivalence, adequacy, pragmatic adaptation, and cultural adaptation—are examined in close connection with functional style. On the basis of English–Uzbek and Russian–Uzbek translation materials, the stylistic outcomes of lexical-semantic, syntactic, and pragmatic transformations are identified. International translation theories are comparatively analysed alongside the scholarly views of Uzbek researchers, thereby broadening the conceptual understanding of stylistic adequacy.*

Keywords: *translation theory, functional style, stylistic transformation, equivalence, adequacy, pragmatic adaptation, discourse, national aesthetic thinking.*

Kirish. Tarjima nazariyasida funksional uslubni saqlash masalasi eng murakkab nazariy va amaliy muammolardan biridir. Matnning uslubiy xususiyatlari uning kommunikativ maqsadi, ijtimoiy vazifasi va diskursiv muhitiga bevosita bog‘liq bo‘lib, tarjima jarayonida aynan shu komponentlar eng ko‘p transformatsiyaga uchraydi. Har bir matn muayyan funksional uslub (badiiy, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik yoki og‘zaki nutq uslubi) doirasida shakllanadi. Tarjimon esa nafaqat mazmunni, balki shu uslubiy qatlamni ham adekvat qayta yaratishi zarur.

Roman Jakobson tarjimani til ichidagi, tillararo va intersemiotik jarayon sifatida tasniflab, har bir tarjima turi o‘ziga xos lingvistik va uslubiy qayta kodlashni talab qilishini ta’kidlaydi [1]. Uning fikricha, tarjima bu shunchaki leksik moslik emas, balki belgi tizimlarining funksional qayta qurilishidir.

Eugene Nida tomonidan ishlab chiqilgan dinamik (keyinchalik, funksional) ekvivalentlik nazariyasi tarjimada matnning qabul qiluvchiga ko‘rsatadigan ta’sirini saqlashni asosiy mezon sifatida belgilaydi. Nidaning fikricha, tarjima muvaffaqiyati lingvistik shaklga emas, balki kommunikativ effektga bog‘liq [2]. Bu esa funksional uslubni saqlash masalasini markaziy o‘ringa olib chiqadi.

Peter Newmark esa semantik va kommunikativ tarjima tushunchalarini ajratib, matnning stilistik tabiatiga qarab strategiya tanlash zarurligini asoslaydi [3]. Unga ko‘ra, badiiy matnlarda uslubiy komponent ustuvor bo‘lsa, informativ matnlarda mazmuniy aniqlik birinchi o‘rinda turadi.

O‘zbek tarjimashunosligida ham funksional uslub va stilistik adekvatlik muammosi muhim o‘rin egallaydi. Dilmurod Quronov tarjimada uslubiy qatlamlarning milliy tafakkur, estetik an’ana va mentalitet bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlab, stilistik transformatsiyani ijodiy jarayon sifatida talqin qiladi [6]. G‘aybulla Salomov esa tarjimada stilistik moslikni asosiy mezonlardan biri deb hisoblab, ayniqsa badiiy matnlarda obrazlilik va ekspressivlikni saqlash zarurligini qayd etadi [5].

Shu nuqtayi nazardan, funksional uslubni saqlash tarjimaning ekvivalentlik, adekvatlik va pragmatik moslashuv kabi asosiy kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarjima jarayonida yuz beradigan stilistik transformatsiyalar bu yo‘qotish emas, balki til tizimlari va madaniy kontekstlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash mexanizmidir.

Metodlar. Mazkur tadqiqot kompleks lingvistik yondashuv asosida olib borildi va funksional uslub hamda stilistik transformatsiya muammolarini aniqlashda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Qiyosiy-lingvistik metod ingliz-o‘zbek va rus-o‘zbek tarjimalarini struktur-semantik jihatdan solishtirish imkonini berdi. Ushbu metod orqali manba matn va tarjima matni o‘rtasidagi leksik moslik va tafovutlar, grammatik konstruktsiyalar almashinuvi, uslubiy qatlamlarning saqlanish darajasi aniqlandi. Bu metod, ayniqsa, Vinay and Darbelnet tomonidan tavsiflangan tarjima transformatsiyalari modeli hamda Vilen Komissarov nazariy qarashlari asosida qo‘llanildi.

Stilistik tahlil metodida matnning funksional uslubga xos belgilarini aniqlashga e’tibor qaratildi. Bunda quyidagilar o‘rganildi: obrazlilik vositalari (metafora, epitet, kinoya), ekspressiv birliklar, sintaktik parallelizm va ritmik tuzilma, publitsistik emotsionallik darajasi. Stilistik mezonlarni belgilashda Peter Newmark va G‘aybulla Salomov nazariyalariga tayanildi.

Diskursiv metod matnni ijtimoiy-kommunikativ hodisa sifatida talqin qilish imkonini berdi. Bu metod orqali biz matnning kommunikativ maqsadi, adresat omili, madaniy kontekst, pragmatik yuklamalarni tahlil qilishga harakat qildik. Mazkur bosqichda tarjimada funksional uslubning saqlanishi faqat lingvistik emas, balki kommunikativ omillar bilan ham belgilanadi, degan tamoyil asos qilib olindi.

Transformatsion metod orqali tarjimada yuz beradigan quyidagi o‘zgarishlar tasniflandi: leksik-semantik transformatsiyalar (konkretlashtirish, umumlashtirish, modulatsiya), grammatik transformatsiyalar (transpozitsiya, sintaktik qayta qurish), pragmatik transformatsiyalar (adaptatsiya, ekspressivlikni kuchaytirish yoki susaytirish). Bu jarayonda stilistik transformatsiyaning funksional uslubga ta’siri aniqlanib, har bir o‘zgarishning kommunikativ natijasi baholandi.

Natija. Metafora, kinoya, epitet va boshqa ekspressiv birliklar tarjimada, ko‘pincha, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya yoki ekvivalent almashtirish orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi obrazli metafora o‘zbek tilida bevosita tarjima qilinmay, ma’no jihatdan mos, ammo shaklan boshqa birlik bilan berilishi kuzatildi. Bu jarayon Eugene Nida ta’kidlagan funksional ekvivalentlik tamoyiliga mos keladi, ya’ni asosiy e’tibor ta’sirga qaratiladi. Biroq ayrim hollarda obrazlilik darajasi kamayishi yoki kuchayishi kuzatildi. Bu esa uslubiy ohangning qisman o‘zgarishiga olib keladi. O‘zbek tarjimashunosligida G‘aybulla Salomov stilistik moslikni tarjimaning muhim mezoni sifatida belgilab, aynan shu turdagi leksik o‘zgarishlarning estetik natijasiga alohida urg‘u beradi.

Leksik-semantik transformatsiyalar funksional uslubni saqlashning eng faol vositasidir, biroq ular noto‘g‘ri qo‘llansa, uslubiy yo‘qotish yuzaga kelishi mumkin.

Ingliz tilidagi murakkab sintaktik konstruksiyalar (masalan, ko‘p qavatli ergash gaplar, participial constructions) o‘zbek tilida, ko‘pincha, sodda yoki qo‘shma gaplarga ajratiladi. Bu jarayon Peter Newmark tomonidan ta’riflangan kommunikativ tarjima strategiyasiga mos keladi, chunki maqsad matnni qabul qiluvchi uchun tabiiy va ravon qilishdir. Shu qatorda aytish kerakki, sintaktik soddalashtirish, ayrim hollarda: ritmik tuzilmani o‘zgartiradi, badiiy intensivlikni kamaytiradi, publitsistik urg‘uni susaytiradi. Informativlik saqlansa-da, uslubiy intensivlik pasayishi ehtimoli mavjud. Ayniqsa, badiiy matnlarda sintaktik parallelizmning yo‘qolishi estetik ta’sirni susaytirishi mumkin.

Tarjimada funksional uslubni saqlash faqat lingvistik o‘zgartirish bilan cheklanmaydi. Matnning ijtimoiy vazifasi va adresat omili hisobga olinishi zarur.

Publitsistik matnlarda emotsional-ekspressiv birliklar, ko‘pincha, milliy kontekstga mos ravishda qayta shakllantiriladi. Bu jarayon Lawrence Venuti tomonidan tavsiflangan domestikatsiya strategiyasiga yaqinlashadi [4].

Dilmurod Quronov stilistik adekvatlikni milliy-estetik tafakkur bilan bog‘laydi. Stilistik adekvatlik bu faqat lingvistik moslik emas, balki milliy-estetik ta’sirni saqlash jarayonidir.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, quyidagi xulosalarni ilgari sursak maqsadga muvofiq bo‘ladi: leksik-semantik transformatsiyalar uslubni saqlashning asosiy vositasi hisoblanadi, sintaktik transformatsiyalar kommunikativ ravonlikni ta’minlaydi, ammo ba’zan estetik intensivlikni pasaytiradi, pragmatik adaptatsiya funksional uslubni ijtimoiy-kontekstual darajada saqlashga xizmat qiladi, stilistik adekvatlik ko‘p qatlamli hodisa bo‘lib, lingvistik, estetik va madaniy omillar uyg‘unligini talab qiladi.

Muhokama. Funksional uslubni saqlash masalasi tarjima nazariyasida ekvivalentlik tushunchasidan kengroq va murakkabroq kategoriyadir. Agar ekvivalentlik, asosan, mazmuniy moslikni anglatadigan bo‘lsa, funksional uslubni saqlash matnning kommunikativ vazifasi, estetik ta’siri, ijtimoiy konnotatsiyasi va madaniy yuklamasini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli stilistik transformatsiya bu oddiy lingvistik almashinuv emas, balki ko‘p qatlamli rekonstruksiya jarayonidir.

Lawrence Venuti tarjimada ikki asosiy strategiyani domestication (milliylashtirish) va foreignization (begonalikni saqlash)ni ajratadi [4]. Domestikatsiya strategiyasida matn qabul qiluvchi madaniyatga yaqinlashtiriladi, bu esa ko‘pincha uslubiy soddalashtirish yoki milliy ekspressiv vositalarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Foreignizatsiya esa manba matnning begonalik xususiyatini saqlashni ko‘zda tutadi, natijada uslubiy o‘ziga xoslik maksimal darajada himoya qilinadi.

Funksional uslubni saqlash jarayonida tarjimon aynan shu ikki strategiya o‘rtasida muvozanat izlaydi. Publitsistik matnlarda ko‘proq domestikatsiya ustunlik qilsa, badiiy matnlarda foreignizatsiya elementlari ko‘proq saqlanadi.

Eugene Nida tomonidan ham ilgari surilgan funksional (dinamik) ekvivalentlik nazariyasi stilistik transformatsiya jarayonini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Nida ta’kidlaganidek, tarjimada asosiy mezon qabul qiluvchining reaksiyasidir. Bu esa uslubiy vositalarni bevosita shaklga emas, balki ta’sir kuchiga qarab tanlash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tarjimashunosligida uslubiy transformatsiya ko‘pincha “ijodiy moslashtirish” sifatida talqin qilinadi. G‘aybulla Salomov badiiy tarjimada obrazlilikni saqlashni asosiy vazifa deb hisoblaydi va ayrim hollarda shakliy o‘zgarish estetik adekvatlikni ta’minlash uchun zarur ekanini ta’kidlaydi. Dilmurod Quronov esa uslubiy qatlamni milliy tafakkur bilan bog‘lab, tarjimani madaniyatlararo estetik dialog sifatida baholaydi.

Ayniqsa, badiiy matnlarda stilistik transformatsiya ijodiy jarayon tusini oladi. Metafora, ritm, sintaktik parallelizm, fonetik effektlar kabi elementlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirilmaydi, balki yangi til tizimida qayta yaratiladi. Bu jarayon ba’zan shakliy yo‘qotishlarni yuzaga keltirsa-da, umumiy estetik ta’sirni saqlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, stilistik transformatsiya tarjimaning zaruriy va tabiiy komponentidir. U funksional us-lubni saqlash uchun lingvistik moslik, pragmatik moslashuv, madaniy adaptatsiya, estetik adekvatlik o‘r-tasida muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Natijada funksional uslubni saqlash – bu statik moslik emas, balki dinamik, ijodiy va madaniyatlararo jarayon ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa. Tarjimada funksional uslubni saqlash – ko‘p qatlamli va murakkab jarayon bo‘lib, u lingvistik, pragmatik hamda madaniy omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Matnning funksional yo‘-nalishi, kommunikativ maqsadi va estetik ta’siri yangi til tizimida qayta yaratilmas ekan, tarjima to‘laqonli adekvatlikka erisha olmaydi. Shu ma’noda, stilistik transformatsiya tarjimaning ixtiyoriy elementi emas, balki zaruriy mexanizmidir. U matnning mazmuniy emas, balki funksional va estetik identifikatsiyasini ta’-minlashga xizmat qiladi.

Ekvivalentlik har doim stilistik adekvatlikni anglatmaydi. Mazmuniy moslik saqlangan taqdirda ham, agar uslubiy qatlam, ekspressivlik yoki kommunikativ ohang yo‘qolsa, tarjima funksional jihatdan to‘liq deb baholanmaydi. Demak, stilistik adekvatlik ekvivalentlikdan kengroq tushunchadir.

Transformatsiya yo‘qotish emas, balki moslashtirish jarayonidir. Leksik-semantik, sintaktik va pragmatik transformatsiyalar matnni yangi til va madaniy muhitga integratsiya qilish vositasidir. Ular orqali tarjimon manba matnning funksional vazifasini qabul qiluvchi auditoriya uchun qayta modellashtiradi.

Funksional uslubni saqlash muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Tarjimon lingvistik aniqlik, estetik ta’sir va madaniy moslashuv o‘rtasida optimal nisbatni topishi lozim. Bu jarayon ijodiy kompetensiya va nazariy tayyorgarlikni talab etadi.

O‘zbek tarjimashunosligi funksional-stilistik yondashuvni chuqurlashtirish zaruriyatiga ega. Zamonaviy tarjima nazariyasida diskursiv, pragmatik va kognitiv yondashuvlar keng qo‘llanilayotgan bir paytda, o‘zbek tarjimashunosligida ham funksional uslub va stilistik transformatsiya masalalarini tizimli ravishda tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, milliy-estetik tafakkur va madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida bu yo‘nalishni rivojlantirish muhim ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘rganishimiz davomida, tarjimada funksional uslubni saqlash nazariy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan esa ijodiy yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayon ekanligi tasdiqlandi. Stilistik transformatsiya esa ushbu jarayonning markaziy mexanizmi sifatida tarjima samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation. Selected Writings. The Hague, Mouton, 1959, p. 232–239.
(2). Nida E. Toward a Science of Translating. Leiden, Brill, 1964, 331 p.
(3). Newmark P. A Textbook of Translation. London, Prentice Hall, 1988, 292 p.
(4). Venuti L. The Translator’s Invisibility. London, Routledge, 1995, 353 p.
(5). Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. T., “O‘qituvchi”, 1978, 240-bet.
(6). Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T., A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004, 224-bet.
(7). Komissarov V.N. Теория перевода. M., “Высшая школа”, 1990, 253 с.

Ne’matova Iroda (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi”

REKLAMA MATNLARINING TARJIMADA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida reklama matnlarining tarjimasi jarayonida uchraydigan pragmatik xususiyatlar tahlil qilinadi. Reklama tilining asosiy funksiyalari, uning ta’sirchanlik omillari va madaniy moslashuv jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada reklama matnlarining tarjimasida qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar va usullar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *reklama matni, pragmatika, tarjima, madaniy moslashuv, ta’sirchanlik, imperativ.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются прагматические особенности, возникающие в процессе перевода рекламных текстов с английского и узбекского языков. Рассматриваются основные функции языка рекламы, факторы её воздействующего потенциала, а также процессы культурной адаптации. Кроме того, в статье освещаются основные стратегии и методы, применяемые при переводе рекламных текстов.*